



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(6)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 248 sahifa,
22-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

“Kitobxonlar klubi” modelining ingliz tili to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	10
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Bo‘lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatida suggestiv yondashuvning o‘rni	14
Arolov Davronjon Davlataliyevich	
Akmeologik yondashuv asosida maktabgacha ta‘lim direktor o‘rinbosarlarining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish	19
Asatullayeva Sitora Dilmurod qizi	
Hozirgi o‘zbek tilida neologizmlarning tarixi va bugungi kun taraqqiyoti.....	22
Bektosheva Mehinbonu Abdumalik qizi	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari bolalarida jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	26
Djurayeva Dilfuza Nuriddin qizi	
Korpus lingvistikasi vositalari yordamida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining til tahlili ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	30
Eshonqulova Sarvinoz Yashinovna	
Talabalarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda sun‘iy intellektning o‘rni va ahamiyati.....	35
Hojiyeva Nasiba Bahodirovna	
Logopedik mashg‘ulotlarni tashkil etish va rejalashtirish moduliga oid mustaqil ta‘lim topshiriqlarini integrativ modellashtirishning innovatsion texnologiyalari.....	39
Ibroximova O‘g‘iloy Inomjon qizi	
Jismoniy tarbiya darslarida ortiqcha vaznli bolalarga differensial yondashuvning ahamiyati	43
Yuldashev Bobirjon Noibjon o‘g‘li	
Maktabgacha ta‘lim tashkilotida xalq og‘zaki ijodi vositasida bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishning ahamiyati.....	48
Muradxanova Munisaxon Ikrom qizi	
Bo‘lajak psixologlarda altruistik xulq motivlarini rivojlantirishning psixologik imkoniyatlari	54
Nusratova Mexriniso Baxshilloevna	
Inklyuziv ta‘lim tushunchasi va uning zamonaviy pedagogik paradigmalar tizimidagi o‘rni.....	59
Pulatova Dilfuza Azamkulovna	
Magistrlarda “Imposter sindromi”ni yengish orqali kreativ salohiyatni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari.....	66
Qayumov Baxtiyor Zokirjon o‘g‘li	
Kichik maktab yoshidagi bolalar nutqining fonematik rivojlanishi	70
Qurbonova Sevara Suyunovna	
Mikrobiologiya ta‘limida individual pedagogik texnologiyalarni joriy etish mexanizmlari	74
Raxmatov Oxunjon Soibjonovich	
“Estetik tarbiya”, “kreativ kompetensiya”, “estetik tarbiya mexanizmlari” tushunchalarining konseptual asoslari.....	79
Saidova Feruza Akramovna	
Zamonaviy ta‘lim jarayonida neyropedagogika yordamida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish.....	84
Sidiqova Yulduz Sobirovna	
“So‘nggi jadid” Begali Qosimovning ilmiy-pedagogik merosi.....	88
Toxirova Dilshoda Inom qizi	
Ona tili darslarida o‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar ustida ishlash	92
Turg‘unova Nilufar Muxiddin qizi	
Ingliz, golland va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarning lingvostatistik xususiyatlari.....	96
Xaydarova Go‘zalxon	



Maktabgacha yoshdagi bolalarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda yumshoq ko'nikmalarning ahamiyati.....	101
<i>Xolmatova Dilshoda Sherali qizi</i>	
Farzandlarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning pedagogik imkoniyatlari	105
<i>Yusupova Diloromxon Sabirdjanovna</i>	
Yoshlarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali sotsial manipulyativ ta'sirlarga psixologik barqarorlikni shakllantirish.....	109
<i>Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna</i>	
O'quvchilarda modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirishga ko'maklashadigan faoliyat usullari	114
<i>Abdurazzaqov O'ktam Abduqayumovich</i>	
Dizartriya shakllarining klinik-patogenetik tahlili va differensial diagnostikasi	120
<i>Axmedova V. T.</i>	
Boshlang'ich sinflarda fanlararo yondashuvga asoslangan integrativ topshiriqlar ishlab chiqishning uslubiy asoslari.....	127
<i>Elmurodova Inoyat Abdumutalibovna</i>	
Deviant xulq-atvorli o'smirlar ijtimoiylashuvining psixologik determinantlari.....	132
<i>Elov Ziyodullo Sattorovich</i>	
Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida talabalar o'quv natijalarini baholashning pedagogik modeli.....	138
<i>Ernazarov Mirzohid Yo'ldosh o'g'li</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi	145
<i>Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv tilshunoslikni joriy etish masalalar	150
<i>Mamatova Gulshan Amankulovna</i>	
Doston musiqiy merosini o'rganishni uslubiy takomillashtirish mazmuni.....	153
<i>Qo'shayev Ilhom Axtamovich, Nasirova Sevinch Ismatovna</i>	
"Elektr yoritish" fanida mustaqil ta'limning zamonaviy shakllari.....	157
<i>Nasretdinova Feruza Nabiyeвна</i>	
Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda sog'lom turmush tarzi madaniyatini shakllantirish	162
<i>Nazarova Dildora Asatovna, Kuchkorova Robiya Shuxrat qizi</i>	
Dual ta'limda oliy ta'lim va maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikning mazmuni.....	167
<i>Qoraboyeva Zohidaxon To'lanboyevna, Tursunbayeva Sevara Abdullo qizi</i>	
A Methodological Model for Developing Pedagogical Reflection in Pre-Service EFL Teachers.....	172
<i>Rahimberdiyeva Maftuna Rakhimberdi kizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda sog'lom turmush tarzining kasbiy kompetentlikka ta'siri	177
<i>Raximova Saboxat Qaxramon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda interaktiv texnologiyalar va faol ta'lim metodlarining samaradorligi	182
<i>Safarova Nigora Nasilloevna</i>	
Maktabgacha ta'lim jarayonida interfaol usullarning mazmuni, turlari va funksional ahamiyati.....	190
<i>Safarova Soliha Ilhomovna</i>	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati...	196
<i>Saotmuratova Zebo Yuldash qizi</i>	
Musiqqa ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	200
<i>Saparov Raxim Muratbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ijtimoiy zarurat sifatida.....	204
<i>Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi</i>	
Energetika fanlarini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik afzalliklari.....	208
<i>Zoxidov Iqboljon Zokirjonovich</i>	
Методическая модель контекстуального обучения в формировании лингвокультурной компетенции при обучении русскому языку в национальных группах	213
<i>Рустамова Ферузaxon Махмуджановна</i>	

Integrating Artificial Intelligence into EFL Academic Writing Instruction: Opportunities, Challenges, and Pedagogical Implications.....	218
Allamurodov Elyor Tursun ugli	
Sahna nutqida adabiy tur va janrlarning metodik talqini.....	223
Dilrabo Jumanova	
Sun'iy intellekt asosidagi ta'lim ekotizimi: imkoniyatlar va xavflar	227
Oqil Ochilov Lutfullo o'g'li	
Z avlod bilan ishlashda ta'lim va tarbiyaga oid zamonaviy tendensiyalar	232
Ravshanov Sanjar Tolibjonovich	
Talabalarni ma'naviy tarbiyalash jarayonida diagnostik metodlardan samarali foydalanishning ahamiyati...	235
Saotmuratova Zebo Yuldash qizi	
Tarixiy-ilmiy materiallar va zamonaviy texnologiyalar integratsiyasi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining geometrik tafakkurini rivojlantirish metodikasi.....	239
Toshpulatova Mamura Ismailovna, Mannonova Dilafro'z Ravshan qizi	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini boshqarish va muvofiqlashtirish ...	244
Xakimov Abdug'ulom Soyibjonovich	

MAKTABGACHA YOSHDAGI TARBIYALANUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH IJTIMOYIY ZARURAT SIFATIDA

Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi
Qo'qon davlat universiteti,
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi doktranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda (3-7 yosh) mantiqiy fikrlashni rivojlantirish zamonaviy jamiyatning muhim ijtimoiy-pedagogik zarurati sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda mantiqiy fikrlashning psixologik-pedagogik asoslari, uning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda rivojlantirishning samarali pedagogik texnologiyalari yoritilgan.

STEM-faoliyatlar, didaktik o'yinlar va muammoli vaziyatlarga asoslangan ta'lim usullaridan foydalanish maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning mantiqiy fikrlash ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilashi aniqlangan. Tadqiqot natijalari maktabgacha ta'lim amaliyotida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar va metodikalarni takomillash-tirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, mantiqiy fikrlash, kognitiv rivojlanish, STEM-faoliyat, didaktik o'yinlar, muammoli o'qitish, ijtimoiy zarurat, pedagogik texnologiya.

Abstract: This article examines the development of logical thinking in preschool children (aged 3-7 years) as an important socio-pedagogical necessity of modern society. The study highlights the psychological and pedagogical foundations of logical thinking, the factors influencing its development, and effective pedagogical technologies for fostering this ability.

The findings indicate that the use of STEM-based activities, didactic games, and problem-based learning methods significantly improves logical thinking skills among children in preschool educational institutions. The results of the study contribute to the improvement of programs and methodologies aimed at developing logical thinking in preschool education.

Key words: preschool education, logical thinking, cognitive development, STEM activities, didactic games, problem-based learning, social necessity, pedagogical technology.

Аннотация: В данной статье развитие логического мышления у детей дошкольного возраста (3-7 лет) рассматривается как важная социально-педагогическая потребность современного общества. В исследовании раскрываются психолого-педагогические основы логического мышления, факторы, влияющие на его формирование, а также эффективные педагогические технологии его развития.

Установлено, что использование STEM-деятельности, дидактических игр и методов проблемного обучения способствует значительному повышению показателей логического мышления у детей в дошкольных образовательных организациях. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования программ и методик развития логического мышления в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, логическое мышление, когнитивное развитие, STEM-деятельность, дидактические игры, проблемное обучение, социальная потребность, педагогическая технология.

KIRISH

Zamonaviy axborot jamiyatida insoniyat oldida global muammolarni hal qilish, yangi texnologiyalarga moslashish va ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega bo'lish zarurati kun sayin ortib bormoqda. Jahon iqtisodiy forumining 2023-2024-yillar hisobotiga ko'ra, XXI asr uchun eng zarur bo'lgan kasbiy kompetensiyalar orasida tanqidiy va mantiqiy fikrlash birinchi o'rinni egallaydi. Bu esa ushbu qobiliyatni shakllantirish uchun eng qulay davr - maktabgacha yosh davrining ahamiyatini yanada oshiradi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixologiya fanida maktabgacha yosh (3-7 yosh) kognitiv rivojlanishning senzitiv davri sifatida e'tirof etiladi. J. Piagening kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bola bu davrda "preoperatsional" bosqichdan "konkret operatsiyalar" bosqichiga o'tadi va mantiqiy tafakkurning dastlabki strukturalari shakllanadi (J. Piaget, 1952).

L.S. Vygotskiy esa "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasi orqali kattalar va tengdoshlar bilan hamkorlikdagi faoliyat mantiqiy fikrlashni jadallashtirishi mumkinligini asoslab bergan (L.S. Vygotsky, 1978).

O'zbekistonda maktabgacha ta'limni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-iyundagi PF-98-sonli Farmonida maktabgacha ta'limni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, bolaning intellektual salohiyatini erta rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. 2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat bo'yicha maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrov 75,3 foizga yetdi, bu esa sifatti ta'lim mazmunini shakllantirish masalasini dolzarb etadi.

Tadqiqotning ilmiy muammosi shundan iboratki, maktabgacha ta'lim amaliyotida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli pedagogik yondashuv hali to'liq shakllanmagan. Ko'pgina tarbiyachilar an'anaviy usullar bilan cheklanib, zamonaviy texnologiyalardan yetarli darajada foydalanmaydilar.

Maqolaning maqsadi: maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslarini tadqiq etish va samarali metodlarni ilmiy asosda tahlil qilish.

Tadqiqot vazifalari:

- mantiqiy fikrlashning psixologik-pedagogik mohiyatini tahlil qilish;
- maktabgacha yoshda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash;
- samarali pedagogik texnologiyalarni ko'rib chiqish va ularning samaradorligini baholash;
- ilmiy xulosalar chiqarish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Mantiqiy fikrlashning psixologik-pedagogik asoslari

Mantiqiy fikrlash - bu real voqealik hodisalari o'rtasidagi munosabatlar va bog'liqliklarni aniqlash, tahlil va sintez qilish, xulosalar chiqarish hamda muammolarni izchil hal etish qobiliyatidir. Psixologik nuqtai nazardan, bu qobiliyat murakkab kognitiv jarayon bo'lib, bir qancha mental operatsiyalarni o'z ichiga oladi: tasniflash (klas-sifikatsiya), qiyoslash (seriyalashtirish), sabab-oqibat munosabatlarini tushunish va abstrakt tafakkur.

J. Piage (1952) nazariyasiga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalar "preoperatsional" davrda bo'lib, ular simvolik tafakkur va til orqali fikrlashni o'zlashtiradilar, biroq hali to'liq mantiqiy operatsiyalarni bajara olmaydilar. Shu bilan birga, bu davr mantiqiy fikrlashning asosiy poydevorini qo'yish uchun o'ziga xos senzitiv davr hisoblanadi. A. Diamond (2013) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ijroi funksiyalar - ishchi xotira, kognitiv nazorat va moslashuvchanlik - maktabgacha yoshda faol shakllanadi va keyingi akademik muvaffaqiyat bilan kuchli bog'liqdir.

L.S. Vygotskiyning (1978) "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasi maktabgacha ta'lim uchun ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, bola o'z imkoniyatlarining chegarasida faoliyat ko'rsatganda va malakali rahbarlik ostida ish olib borganda kognitiv o'sish eng jadal sur'atlarda kechadi. Bu esa tarbiyachining pedagogik mahorati va ta'lim jarayonida yaratilgan intellektual muhitning hal qiluvchi rolini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, bolada mantiqiy fikrlashning rivojlanishi bir qancha muhim omillar ta'siri ostida kechadi.

Biologik omillar: miya neyronlarining yetilishi va nerv tizimining rivojlanishi kognitiv qobiliyatlar uchun fiziologik asosni yaratadi. Genetik moyillik mantiqiy qobiliyatlarning individual farqlarini qisman belgilasa-da, muhit ta'siri bu farqlarni sezilarli darajada o'zgartirishi mumkin.

Pedagogik omillar: tarbiyachining kasbiy mahorati, qo'llaniladigan metodlar va o'qitish strategiyalari bolaning mantiqiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Zamonaviy tadqiqotlar muammoli o'qitish, o'yin-faoliyat asosida ta'lim va STEM yondashuvining samaradorligini ko'rsatadi.

Ijtimoiy-madaniy omillar: oila muhiti, ota-onalarning ta'lim darajasi va bolani o'rab turgan intellektual muhit mantiqiy fikrlash rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbek tadqiqotchilari M. Nishonova va D. Xasanova (2021) tadqiqotlarida mintaqaviy maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning mantiqiy fikrlash ko'rsatkichlari shahardagilarga nisbatan pastroq ekanligi aniqlangan, bu esa ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'sirini ko'rsatadi.

Samarali pedagogik texnologiyalar

Ilmiy adabiyotlar tahlili maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda uchta asosiy pedagogik yondashuvning yuqori samaradorligini ko'rsatadi.

STEM-faoliyat yondashuvi

STEM (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) faoliyati bolalarda kuzatish, taxmin qilish, tekshirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Konstruktorlar bilan ishlash, sodda tajribalar o'tkazish va tabiiy materiallar bilan muomala qilish jarayonida bola gipotetik-deduktiv tafakkurni mashq qiladi. D.H. Clements va J. Sarama (2021) tadqiqotlari erta matematika va STEM ta'limi bolalarda mantiqiy fikrlash poydevorini mustahkamlashda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Didaktik o'yinlar metodi

"Qo'shimcha nima?", "Juftlik top", "Naqshni davom ettir", "Mantiqiy zanjir" kabi didaktik o'yinlar klassifikatsiya, seriyalashtirish va mantiqiy munosabatlarni o'rganishga yo'naltirilgan. G. Mirzayeva va S. Xoliqova (2020) o'tkazgan tadqiqotlarda muntazam ravishda didaktik o'yinlardan foydalanish bolalarda klassifikatsiya va taqqoslash qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantirishini isbotlagan. O'yin bolaning tabiiy ehtiyojiga mos kelganligi sababli, ushbu metod ularning motivatsiyasini oshiradi va o'rganishni qiziqarli jarayonga aylantiradi.

Muammoli vaziyatlar metodi

Muammoli o'qitish metodida tarbiyachi maxsus tayyorlangan muammoli stsenariylar orqali bolalarni ijodiy yechim topishga undaydi. "Qushcha inini qanday quradi?", "Suv nima uchun idishdan oshib ketdi?" kabi savol-muammo holatlari bolaning mustaqil fikrlashini, sabab-oqibat munosabatlarini tushunishini va muammoni hal qilish strategiyalarini rivojlantiradi. M. Yusupova va D. Rahimova (2022) tadqiqotlari ushbu metodning bolalarning kognitiv faolligini oshirishda alohida samaradorligini ko'rsatgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mantiqiy fikrlashning ijtimoiy ahamiyati

Bolaning mantiqiy fikrlashini erta rivojlantirish uning kelajakdagi akademik muvaffaqiyati bilan yuqori darajada korrelyatsiyalanadi. OECDning "Education at a Glance 2023" hisobotida ta'kidlanganidek, maktabgacha ta'limga sarmoya kiritilgan har bir dollar keyingi ta'lim sifatiga 7-10 dollarlik ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek tadqiqotchilari M. Nishonova va D. Xasanova (2021) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda Toshkent maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning atigi 34,2 foizi yosh me'yoriga mos mantiqiy fikrlash darajasida ekanligi aniqlangan. Bu ko'rsatkich mintaqaviy maktabgacha ta'lim muassasalarida yanada pastroq - 28,7 foiz. Ushbu raqamlar muammoning miqyosini va ijtimoiy zaruratini yaqqol ko'rsatadi.

Tarbiyachilarning pedagogik tayyorgarligi ham muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarbiyachilarning ko'pchiligi mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi maxsus metodlardan yetarli darajada xabardor emas yoki ularni amaliyotga tatbiq eta olmaydi. Shu sababli, maqsadli malaka oshirish mashg'ulotlari orqali tarbiyachilarni kasbiy jihatdan rivojlantirish ham alohida e'tibor talab etadi. N. Axmedova (2022)ning "ikki tomonlama o'qitish" konsepsiyasiga ko'ra, bola va tarbiyachini bir vaqtda rivojlantirish yondashuvi eng yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amalga oshirilgan tahlil asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish XXI asr jamiyatining ijtimoiy talabi bo'lib, bu qobiliyatning sezitiv davri aynan 3-7 yosh oralig'iga to'g'ri keladi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari ushbu sohadagi tizimli ishlarni ustuvor vazifa sifatida belgilagan.
2. STEM-faoliyat, didaktik o'yinlar va muammoli vaziyatlar metodlarini birgalikda qo'llash maktabgacha ta'limda mantiqiy fikrlash ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilashi ilmiy adabiyotlar orqali tasdiqlangan.
3. Tarbiyachilarni bir vaqtda malaka oshirishga jalb etish samaradorlikni oshirishning muhim sharti bo'lib, pedagogik dasturlar ikki tomonlama - bola va tarbiyachi rivojlanishini qamrab olishi lozim.
4. Kelgusida tadqiqotni respublika miqyosida kengaytirish, oila omilini nazorat qilish va uzoq muddatli ta'sirni baholash uchun longitudinal dizayndan foydalanish tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Nishonova M., Xasanova D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishning psixologik asoslari // Maktabgacha ta'lim. - 2021. - № 4. - B. 12-19.
2. Axmedova N. Maktabgacha ta'limda ikki tomonlama o'qitish konsepsiyasi: tarbiyachi va bola rivojlanishini bir vaqtda ta'minlash. - Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022. - 184 b.
3. Mirzayeva G., Xoliqova S. Didaktik o'yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish // Pedagogika va psixologiya. - 2020. - № 2. - B. 34-41.
4. Toshmatova Z. STEM-ta'lim asosida maktabgacha tarbiya samaradorligini oshirish. - Samarqand: SamDU nashriyoti, 2023. - 210 b.
5. Yusupova M., Rahimova D. Maktabgacha yoshdagi bolalarda muammoli o'qitish metodlari va ularning kognitiv rivojlanishga ta'siri // Xalq ta'limi. - 2022. - № 5. - B. 78-84.
6. Qodirov B. Maktabgacha ta'lim muassasalarida intellektual rivojlanish dasturlarini loyihalash: nazariya va amaliyot. - Toshkent: Yangi nashr, 2023. - 256 b.
7. Piaget J. The Origins of Intelligence in Children. - New York: International Universities Press, 1952. - 419 p.
8. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. - Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. - 191 p.
9. Diamond A. Executive Functions // Annual Review of Psychology. - 2013. - Vol. 64. - P. 135-168. - DOI: 10.1146/annurev-psych-113011-143750.
10. Clements D.H., Sarama J. Learning and Teaching Early Math: The Learning Trajectories Approach. - 3rd ed. - New York: Routledge, 2021. - 398 p.
11. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. - Paris: OECD Publishing, 2023. - 512 p. - DOI: 10.1787/e13bef63-en.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(6)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.